



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI




No 8  
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariysi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariysi va metodikasi (sohalalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariysi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariysi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariysi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariysi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 68 sahifa,  
1-avgust, 2025-yil.

## BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirlari

## BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulسانам Нематовна – Pedagogika fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiiev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'idoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

Gafurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston

Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjayev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'lifi boshqarmasi boshlig'inining birinchi o'rinnbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulسانам Нематовна – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda

Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va mактаб та'limi" журнali O'zbekiston Respublikasi Oly attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiysi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiysi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va mактаб та'limi" журнали

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361

# MUNDARIJA

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori modeli: tizimli boshqaruv yondashuvi asosida shakllanishi.....	14
<b>Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Maraimova Muxtabar Pulatovna</b>	
O'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari.....	20
<b>Abduraximov Doniyor Abusaid o'g'li</b>	
Ta'lim siyosati va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi: xalqaro tajriba va o'zbekistonda amaliyot taqqoslamasi.....	25
<b>Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi</b>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning hozirgi holati va o'ziga xosligi .....	30
<b>Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi</b>	
Ta'lim sifatini oshirishda "Barkamol avlod" bolalar mакtablarining zarurati va ahamiyati .....	33
<b>Eshmuminova Oybarchin Botirovna</b>	
Bolalarda nutq kamchiliklari: etiologiya, rivojlanish dinamikasi va erta aralashuv.....	39
<b>Isayeva Mushtariy Alisher qizi</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlikka o'rgatish usullari .....	44
<b>Maydonova Saboxat Sadulloyevna</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalariga qiziqishni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari.....	48
<b>Mingbayeva Barno Ubaydullayevna</b>	
Pedagogical Characteristics in Enhancing Speaking Skills of Esp Learners in English Language Classes Through Digital Technologies.....	52
<b>Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna</b>	
Nutq buzishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari .....	55
<b>Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi</b>	
"Biologik savodxonlik" tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida .....	59
<b>Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna</b>	
O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni .....	65
<b>Umarova Feruzabonu Bobir qizi</b>	

# TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA “BARKAMOL AVLOD” BOLALAR MAKTABLEARINING ZARURATI VA AHAMIYATI

**Eshmuminova Oybarchin Botirovna**

A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lism, mактабдан ташқари та'lим va uning xorijiy tajribasi, “Barkamol avlod” bolalar maktablarining ta'lim sifatini oshirishdagi roli va ustuvor yo'nalishlari, “Barkamol avlod” bolalar maktablarining tarbiyaviy ahamiyati hamda bolaning “o'zini topish” imkoniyatini yaratuvchi maskan sifatida qabul qiliishi masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lism, mактабдан ташқари та'lим, “qo'shimcha ta'lim”, “norasmiy ta'lim”, “Barkamol avlod” bolalar maktablari.

**Abstract:** This article discusses issues of education, extracurricular education and its foreign experience, the role and priorities of “Barkamol Avlod” children's schools in improving the quality of education, the educational significance of “Barkamol Avlod” children's schools, and their acceptance as a place that creates opportunities for a child to “find himself.”

**Key words:** education, extracurricular education, “additional education”, “non-formal education”, “Barkamol Avlod” children's schools.

**Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы образования, внешкольного образования и его зарубежного опыта, роль и приоритеты детских школ “Баркамол авлод” в повышении качества образования, воспитательное значение детских школ “Баркамол авлод” и их восприятие как места, создающего возможность ребенку “найти себя”.

**Ключевые слова:** образование, внешкольное образование, “дополнительное образование”, “неформальное образование”, детские школы “Баркамол авлод”.

## KIRISH

Ta'lim – shaxs va jamiyat rivojlanishining asosiy omili bo'lib, jadal yangilanayotgan dunyoda katta ahamiyat kasb etadi. Biz shunday bir davrda yashayapmizki, bugun bolalar va o'smirlarda ruhiy tiklanish yuzaga kelmoqda. Agar inson bo'lmasa, hech qanday texnologik yutuqlar, moddiy boyliklar va tabiiy resurslar jamiyatni rivojlantirishning kashfiyotchisi bo'la olmaydi. Aynan mактабдан ташқари та'lим shaxsni ruhiy tiklanish yo'lida yo'naltiradi; u insonga yangi cho'qqilarga erishish uchun to'siqlarni yengib o'tish istagini beradi, shaxsiy rivojlanish uchun katta imkoniyatlar yaratadi, ijodiy, ta'limiyl va madaniy ehtiyojlarini qanoatlantiradi. “Bolalar go'zallik, o'yin, ertak, musiqa, rasmlar, ijodkorlik dunyosida yashashi kerak. Buning natijasida ularning bilimlarga bo'lgan yo'li belgilanadi.” – V.A. Sukhomlinskij

Zamonaviy dunyoda ko'plab davlatlarda bolalar va yoshlarga bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish imkonini beruvchi o'ziga xos siyosat mavjud. Har bir mamlakatda o'quvchilarning darsdan bo'sh vaqtini samarali tashkil etish maqsadida taqdim etiladigan mashg'ulotlar turlicha terminlar bilan ifodalanadi. Bu atamalar mamlakatlarning ta'lim tizimi, madaniyati va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlariga qarab farqlanadi. Ammo rasmiy va norasmiy ta'lim o'rtaisdagi hamkorlikni tushunish faqatgina ularning orasidagi bo'shliqlarni to'ldiradigan munosabatlarni xaritaga tushirish masalasi emas. Agar biz “Barchaga ta'lim” tashabbusini rasmiy va norasmiy sohalar o'rtaisdagi hamkorlik orqali qanday qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish mumkinligini chuqurroq anglashni istasak, bir qator kengroq masalalarni ko'rib chiqishimiz lozim bo'ladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“Maktabdan tashqari ta’lim” atamasi “norasmiy ta’lim”, “qo’shimcha ta’lim”, “bo’sh vaqt dasturlari” va boshqa atamalar bilan almashtirilishi mumkin. Yevropa Kengashi va Yevropa Ittifoqida bo’sh vaqtini samarali tashkil etish norasmiy ta’lim deb yuritiladi. Zamonaviy pedagogik va sotsiologik tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, yosh avlodning umumiyligi ta’lim olish jarayoni asosan norasmiy muhitlarda kechadi. Aniqrog’i, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishga ta’sir etuvchi bilim, ko’nikma hamda qadriyatlarning qariyb 70 foizi rasmiy ta’lim doirasidan tashqarida – ya’ni oilaviy muhit, tengdoshlar bilan o’zaro muloqot, turli yoshlar tashkilotlari faoliyati, ommaviy axborot vositalari va bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etuvchi norasmiy guruuhlar orqali shakllanadi.

Shu bilan birga, an’anaviy rasmiy ta’lim muassasalari – maktablar, kollejlari va oliy o’quv yurtlari – yoshlarning ta’lim olishiga to’g’ridan-to’g’ri ta’sir qiluvchi asosiy tizim deb hisoblanadi. Biroq, bu tizim umumiyligi ta’lim jarayonining atigi 30 foizini tashkil etadi. Ushbu holat ta’lim siyosatini ishlab chiqishda norasmiy ta’lim muhitlarining o’rnini va ahamiyatini qayta ko’rib chiqishni talab qiladi. Zamonaviy ta’lim tizimi doirasida norasmiy ta’lim (NFE – Non-Formal Education) bolalar va yoshlar uchun o’zining erkinligi, kontekstual moslashuvchanligi hamda innovatsion yondashuvlari bilan rasmiy ta’limdan sezilarli darajada farq qiladi. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, NFE yosh avlod uchun yanada jozibador shaklga ega bo’lib, bu holat ta’lim jarayonida qatnashuvchilarining yuqori motivatsiyasi va faol ishtiroti bilan namoyon bo’ladi.

Norasmiy ta’lim tizimining ustun jihatlaridan biri – uning jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy, texnologik va iqtisodiy o’zgarishlarga tez va moslashuvchan tarzda javob bera olish qobiliyatidir. Bu jihat norasmiy ta’limni rasmiy ta’limdan farqli ravishda doimiy yangilanish va tajriba almashinuvni asosida faoliyat yurituvchi innovatsion maydonga aylantiradi. UNESCO tomonidan taklif etilgan tasrifga ko’ra, norasmiy ta’lim an’anaviy rasmiy ta’lim tizimidan tashqarida tashkil etiladi va maxsus o’quv dasturlari, modular va kurslar asosida amalga oshiriladi. Bunda ta’lim natijalari qatnashuvchilarining bilim, ko’nikma va kompetensiyalariga ijobiy ta’sir ko’rsatgan bo’lsa-da, ular har doim ham rasmiy sertifikat yoki diplom bilan tasdiqlanmaydi<sup>[2]</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bugungi globallashuv sharoitida norasmiy ta’lim institutsional jihatdan kengayib bormoqda. Ayniqsa, Yevropa davlatlarida bu yo’nalishda sezilarli o’sish kuzatilib, o’n minglab qo’shimcha ta’lim tashkilotlari faoliyat yuritmoqda. Ushbu tendensiya ta’limni faqat rasmiy doira bilan cheklab bo’lmasligini, balki norasmiy muhitlarda shakllanadigan bilim va ko’nikmalarning jamiyat taraqqiyotidagi muhim o’rnini e’tirof etish zarurligini ko’rsatadi. Markaziy va Sharqi Yevropa davlatlarining ta’lim siyosatida kuzatilayotgan tendensiyalardan biri shundaki, rasmiy ta’lim bilan bir qatorda bolalar va yoshlar uchun qo’shimcha rivojlanish imkoniyatlarini yaratish ham davlat zimmasidagi muhim vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, ushbu mintaqadagi ko’plab hukumatlar norasmiy ta’lim (NFE – Non-Formal Education)ni yosh avlodning ijtimoiy, madaniy va shaxsiy kompetensiyalarini rivojlanishda muhim vosita deb biladi.

Masalan, Finlyandiya va Litvada NFE orqali o’quvchilarining turli kompetensiyalarni egallash tendensiyasi sezilarli darajada kuchaygan. Finlyandiya tajribasida NFE an’anaviy maktab tizimidan tashqarida tashkil etiladi va u ko’pincha bo’sh vaqt mobaynida, nodavlat notijorat tashkilotlar, jamoat birlashmalari hamda ijtimoiy faoliyat kontekstida amalga oshiriladi. Bu esa NFE’ni nafaqat rasmiy ta’limga muqobil, balki uni to’ldiruvchi, ayrim hollarda esa teng darajada muhim bilim manbai sifatida qarash imkonini beradi. Finlyandiya hukumati tomonidan NFE sohasi davlat siyosati darajasida qo’llab-quvvatlanadi. Xususan, mamlakatdagi Ta’lim va madaniyat vazirligi hamda mahalliy boshqaruv organlari – munitsipalitetlar – bolalar va yoshlar bilan ishlashha oid jamoat faoliyatini rejalashtirish, muvofiglashtirish hamda moliyalashtirishda faol ishtirot etadi. Norasmiy ta’lim doirasida madaniyat, sport va yoshlar siyosatiga oid xizmatlar aholining keng qatlamlariga qulay tarzda taqdim etiladi. Bu xizmatlardan foydalanish imkoniyati, ayniqsa, moliyaviy jihatdan qulay bo’lib, ko’pgina hollarda ular bepul yoki ramziy to’lov (masalan, a’zolik badali 5 yevro miqdorida) asosida tashkil etiladi.<sup>[3]</sup>


Yaponiyada norasmiy ta’limning rivojlangan va keng tarmoqli tizimi mavjud bo’lib, unga madaniy-ma’rifiy markazlar, sport klublari va maktabdan tashqari mashg’ulotlar kiradi. O’quvchilar jismoniy tarbiya, badiiy ijod va milliy san’atga oid, o’quv dasturiga kiritilmagan, ammo ixtiyoriy tarzda tashkil etilgan dars mashg’ulotlarida bepul ishtirot etadilar. Bundan tashqari, har bir mahalliy hududda qo’shimcha to’garaklar (xor, cholg’u, raqs, uy-ro’zg’or ishlari va boshqalar) faoliyat yuritadi. AQShda esa 6–18 yoshdagi bolalar uchun mo’ljallangan “Boys and Girls Clubs of America” (BGCA) norasmiy ijtimoiy ta’lim shakli sifatida ajralib turadi. Ushbu tashkilot shaxsni ijtimoiy jihatdan faollashtirishga qaratilgan besh asosiy yo’nalishda ta’lim va dam olish dasturlarini taklif etadi: yetakchilik ko’nikmalarini rivojlanish, kasbga yo’naltirish, sog’lom turmush tarzini shakllantirish, san’at bilan shug’ullanish hamda sport va dam olish faoliyatları. Xitoyda norasmiy ta’limning asosiy maqsadi shaxsning har tomonlama rivojlanishiga, ayniqsa, hayotiy ko’nikmalar va axloqiy-ruhiy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan. Bu jarayon madaniy-tarixiy merosni saqlash, milliy o’ziga xoslikni mustahkamlash hamda an’anaviy qadriyatlarni amaliy faoliyat orqali singdirish vositasida amalga oshiriladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bir necha yillar davomida bolalar uchun maktabdan tashqari ta'lif ham pedagogik, ham ijodiy samaradorlikka erishib bormoqda va juda ko'plab yosh iqtidorlarni kashf etdi. Ushbu tizimda tarbiyalanganlar orasida O'zbekistonning shuhratini oshirgan sportchilar, dizaynerlar, rassomlar, hunarmandlar, mental arifmetika a'lochilari va yana ko'plab sovrendorlar bor. Muhim shundaki, "Barkamol avlod" bolalar maktablari o'quvchilarini ijodiy o'sish, san'at mahorati, insonparvarlik qadriyatlariga sodiqlik kabi umumiyl xususiyatlar birlashtiradi. Zamonaviy qo'shimcha ta'lif, maktabdan tashqari ta'lif va tarbiya an'analarini saqlab qolgan holda, bolaning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga, uning kasb tanlashi va yosh avlodga hayotda o'z yo'lini topishda yordam beradi.

Bugungi kunda maktabdan tashqari ta'lif tizimini rivojlantirishning ahamiyati ijtimoiy va ta'lif siyosatining talablaridan kelib chiqadi. Maktabdan tashqari ta'lif tizimini modernizatsiya qilish siyosatining bosh maqsadi – bolalar va yoshlarni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy hayotiga faol jalb qilish, inson resurslarining raqobatbardoshligini ta'minlashdir. Ushbu maqsadga erishish uchun maktabdan tashqari ta'lifning zamonaviy sifati, mavjudligi va samaradorligini ta'minlashimiz lozim. Bu esa iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga, jamiyat va fuqaro ehtiyojlariga mos bo'lishi, buning uchun esa eng yaxshi tarbiyaviy an'analarni va maktabdan tashqari ta'lifni saqlab qolish lozim.

Har bir maktab o'z maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo'nalishlari va rivojlanishini belgilaydigan dasturlarni tanlaydi. Ta'lif sifatini yagona tushuncha sifatida ta'riflash mumkin emas. Shuning uchun "Barkamol avlod" bolalar maktablarining ta'lif sifatini oshirishdag'i roli quyidagi ustuvor yo'nalishlar asosida namoyon bo'ladi.



Bu pozitsiyalar bolalar uchun qo'shimcha ta'lifning konseptual asosini tashkil etadi va ular insonparvar pedagogikaning asosiy prinsiplariga mos keladi: insonning yagona va o'z-o'zini qadrlash huquqini tan olish, uning o'zini ro'yobga chiqarishga bo'lgan huquqi, o'qituvchi va bola o'rtasida tenglikka asoslangan munosabatlar, bolaning qiziqishlariga yo'naltirish, uning hurmatga loyiq shaxs sifatida ko'rilibishi [4]. Bolalar uchun "Barkamol avlod" bolalar maktablari o'z faoliyatini 7 yo'nalishda amalga oshiradi. Har bir maktab o'zining kadrlar, moddiy-teknik va moliyaviy imkoniyatlari qarab, taklif qilayotgan maktabdan tashqari ta'lif dasturining mazmunini belgilaydi. Ta'lif oluvchilarning yosh tarkibi 6 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlarni tashkil etadi. Ta'lif dasturlari bo'yicha o'qish muddati 1 yildan 3-4 yilgacha bo'lishi mumkin. "Barkamol avlod" bolalar maktabi bolalarning ijodiy va kognitiv faoliyatini rivojlantirish uchun maydon yaratadi. Shuningdek, ular o'zlarining shaxsiy fazilatlarini amalga oshirish va asosiy ta'limda ko'pincha e'tibordan chetda qolgan qobiliyatlarini namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladi. "Barkamol avlod" bolalar maktablarida bola o'qish mazmunini o'zi tanlaydi. "Barkamol avlod" bolalar maktablarida amalga oshiriladigan faoliyat turlari xilma-xil bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- "Jismoni tarbiya va sport";
- "Madaniyat va san'at" yo'nalishi (tasviriy san'at va libos);
- "Texnika, konstrukturlik va modellashtirish" yo'nalishi (robototeknika va konstrukturlik);
- "Hunarmandchilik va qo'l mehnati" yo'nalishi (munchoqli bezak);
- "Turizm va ekologiya" yo'nalishi (karving);
- "Oliy ta'lif muassasalari va maktabga tayyorlov" yo'nalishi (mental arifmetika);
- "Xorijiy tillar" yo'nalishi (ingliz tili).

Faoliyat sohalari – ta'lim, dam olish, tarbiya, sport, imkoniyat va qobiliyatlarni amalga oshirish [8]. Bugungi kunda yurtimizda 219 ta “Barkamol avlod” bolalar maktabi faoliyat yuritmoqda va ularda 35 ming nafar bola ta'lim-tarbiya olmoqda. To'garak a'zolari respublika hamda xalqaro tanlovlarda ishtirot etib, bir qancha yutuqlarni qo'lga kiritib kelmoqda.

Xalqaro tanlovlardagi o'rinnar	Oliy o'rinnar	Umumiyligida ishtirokchilar	Gran-pri
200 dan ortiq	18 nafar	887 dan ortiq	7 nafar o'quvchilar
<b>Xalqaro tanlovlardagi o'rinnar</b>			
1-o'rinnar	2-o'rinnar	3-o'rinnar	
403 nafar	138 nafar	118 nafar	

“Madaniyat va san'at” yo'naliishida 276 nafar o'quvchi, “Turizm va ekologiya” yo'naliishida 11 nafar o'quvchi, “Texnika, konstrukturlik va modellashtirish” yo'naliishida 23 nafar o'quvchi, “Hunarmandchilik va qo'l mehnati” yo'naliishida 54 nafar o'quvchi, “Jismoniy tarbiya va sport” yo'naliishida 216 nafar o'quvchi, “Oliy ta'lim muassasalari va maktabga tayyorlov” yo'naliishida 261 nafar o'quvchi hamda “Xorijiy tillar” yo'naliishida 14 nafar o'quvchi xalqaro tanlovlarda ishtirot etib, quyidagi o'rirlarni qo'lga kiritdilar va bu ko'rsatkich yildan-yilga ortib bormoqda [1].



1-rasm: “Barkamol avlod” bolalar maktablari o'quvchilarining respublika va xalqaro tanlovlardagi ishtiroti

Maktabdan tashqari ta'lif bolaning shaxsiy qiziqishlari, ta'limga ehtiyojlari, qobiliyatlariga yo'naltirish, shaxsiy yo'lni tanlash imkoniyatini beradi. Ingliz tili, tasviriy san'at, texnologiya, tabiiy fanlar, informatika, matematika, jismoniy tarbiya va yana bir qator maktab fanlari maktabdan tashqari ta'lif dasturlarida o'z aksini topadi. Bu fanlar bo'yicha qo'shimcha ta'lif olish orqali bolalar o'z bilimlарini boyitib boradilar va bu bilimlarni mustahkamlash maqsadida turli tanlovlarda ishtirok etib, o'zlariga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamlab boradilar [9].

"Barkamol avlod" bolalar maktablarida darslar vaqt bolalarga qulay tarzda tashkil etiladi hamda o'quv dasturining mavzu rejasida variativlikni ta'minlaydi. Bunday imkoniyat bolalarga o'z qiziqishlariga mos to'garaklarga qatnashish imkonini beradi va, albatta, bolalarning qobiliyatlariga mos ravishda muvaffaqiyatlarga erishish uchun shart-sharoit yaratadi.

Maktabdan tashqari ta'lif bolalar uchun erkin o'zini aniqlash va ro'yobga chiqarish imkonini beradi. To'garaklar yo'nalishi, dars soatlari, pedagog-uslubchilar va muhitni tanlash imkoniyatiga ega bo'lish bilan birga, agar dars va mashg'ulotlar ularga yoqmasa, bir necha darsdan so'ng boshqa to'garakka o'tish yoki bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq to'garaklarga qatnashishlari mumkin. O'zini namoyon qilish, ijtimoiy moslashuv va kasb tanlash bolalarga o'z statuslarini o'zgartirishda yordam beradi, chunki ular o'zining individual qiziqishlari va ehtiyojlariga muvofiq ravishda turli faoliyat turlarida, o'zi tanlagan pedagog bilan muloqotda bo'ladi. Agar bola maktab fanlaridan past baho olsa, biroq san'at va madaniyat yoki sport to'garagida yetakchi bo'lsa, bu holat hech bir bola qobiliyatsiz emasligining isboti bo'ladi [5]. Shu sababli, bugungi kunda maktabda fanlar ko'proq amaliyot bilan bog'langan holda tashkil etilmoqda. O'zining potensial qobiliyatlarini kashf etgan va ularni maktab davridayoq amalga oshira olgan o'quvchi jamiyatda haqiqiy hayotga tayyor bo'ladi va maqsadga erishish uchun axloqiy hamda ijtimoiy usullarni tanlashni o'rganadi. Ijtimoiy moslashish uchun bolalar o'z qiziqishlariga mos to'garaklarga qatnashib, zamonaviy sharoitda katta ahamiyatga ega bo'lgan yoshlararo muloqotga kirishadilar. Bu yerda ular o'z tashabbuskorligini, mustaqilligini, yetakchilik fazilatlarini, jamoada ishslash va o'zgalar qiziqishlarini inobatga olishni o'rganadilar.

Bugungi kunda maktabdan tashqari ta'lif o'qish, tarbiya va rivojlanishning birligi sifatida namoyon bo'immoqda. Ta'limga vazifasi – har bir o'quvchiga o'z qiziqishlariga mos ravishda ta'lif olish imkoniyatini yaratish, amaliy kognitiv faoliyat tajribasini shakllantirishni ta'minlashdan iborat. Tarbiyaviy vazifasi – shaxsning ijtimoiy jihatdan muhim sifatlarini rivojlanirish, kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish, bolada ijtimoiy mas'uliyat, jamoaviylik va vatanparvarlikni tarbiyalashni ta'minlashdir. Rivojlaniruvchi vazifasi esa – psixologik jarayonlarni shakllantirish va rivojlanirishni nazarda tutadi, bu orqali har bir bolaning intellektual, ijodiylar jismoniy qobiliyatlarini rivojlanirish imkoniyati yaratiladi [6]. Maktabdan tashqari ta'lif faoliyatga asoslangan ta'lif jarayonidir. U nafaqat bolani aniq ijodiy mahsulot yaratishda ishtirok etishga yo'naltiradi, balki hayoti uchun muhim bo'lgan muammolarni mustaqil ravishda hal qilishga imkon yaratadi. Shu sababdan, katta e'tibor bolaning shaxsiy tajribasiga qaratiladi, bu esa o'z navbatida ta'limga zarurati va ahamiyatini aniqlashda hisobga olinadi. Bola qarorlar qabul qilishni, tanlash va amalga oshirishni, javobgarlikni his qilish, o'zidan kichiklarga yordam berish, yetakchilik fazilatlarini namoyish etish, hayotiy ko'nikmalarni va maktabdan tashqari ta'lifda o'rgangan bilimlarni qo'llashni o'rganadi. Barcha ta'lif jarayoni esa amaliy faoliyatga asoslangan holda tashkil etiladi. Bu jarayon aniq maqsadli bo'lib, bolalarga bilim olish va ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon etish, individual va kasbiy jihatdan o'zini o'zi ro'yobga chiqarish imkonini beradi.

## XULOSA

Maktabdan tashqari ta'lif – bolalarning ijodiy erkinligi va o'zini namoyon qilishi, jamiyat, oila va bolalarning o'zgaruvchan va xilma-xil badiiy, estetik, fiziologik va psixologik ehtiyojlarini qanoatlantirish mexanizmidir. Globallashuv jarayonida, insonning, ayniqsa o'sib kelayotgan yosh avlodning ifoda erkinligi, shaxsiy o'sish va fuqarolik birdamligi singari qadriyatlar asosiy maqsadga aylanib bormoqda. Bu esa ta'lif sohasida umumiy va majburiy ta'lifdan bolaning o'zini namoyon qilishi uchun keng qamrovga ega ta'lif makonini yaratish zaruratini ko'rsatadi. Ta'lif nafaqat umumiy qoidalari va me'yorlarni o'zlashtirish, jamiyatga integratsiyalashuv vositasi, balki bolaning rivojlanish jarayonidagi eng muhim omil – individuallashuv, ya'ni bolaning "o'zini topishi" imkonini ham beradi. Agar davlat o'z zimmasidagi ma'naviy-axloqiy yoki ijtimoiylashtirish vazifasini bajarmasa, ya'ni fuqarolarga to'g'ri qadriyatlar, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy ko'nikmalarni singdirishga e'tibor bermasa, davlat va fuqarolik jamiyati tomonidan yaratilgan sog'lom ijtimoiy-madaniy makonga integratsiyalash imkoniyatlari cheklanganda, shaxslar submadaniy (masalan, ommaviy madaniyat, muqobil hayot tarzi) yoki marginal (yakkalanib qolgan, jamiyatdan chetga chiqqan guruuhlar) axborot muhitlari orqali o'z yo'nalishlarini mustaqil va ba'zan salbiy kontekstdagi shakllarda belgilashga moyil bo'ladi [7]. Bunday xavflarning oldini olish uchun ta'lif, ayniqsa maktabdan tashqari ta'lif muhim rol o'ynaydi. Ya'ni, maktabdan tashqari ta'lifni shunday tashkil etish kerakki, ijtimoiy-madaniy maydonda bola o'zini tanisin, ijobji qadriyatlar asosida o'zligini shakllantirib, jamiyatga sog'lom, faol a'zo sifatida voyaga yetsin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. “Barkamol avlod” bolalar maktablarining xalqaro tanlovlardagi ishtiroki to‘g’risida ma’lumot // Maktabgacha va mактаб та’лими vazirligi Telegram kanali.
2. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization (UNESCO). Published in 2018. 7, Place de Fontenoy, 75352 Paris 07 SP, France.
3. Казаренков В.И., Прокоп Ю., Казаренкова Т.Б. Внеаудиторные занятия студентов по учебным предметам (организационно-педагогический аспект) // Вестник РУДН. Серия “Психология и педагогика”. 2015. № 5. С. 67–77.
4. Казаренков В.И. Миссия педагога высшей школы как ученого, наставника, человека // Вестник РУДН. Серия “Психология и педагогика”. 2008. № 3. С. 87–91.
5. Казаренков В.И. Целостность университетской подготовки специалиста // Вестник РУДН. Серия “Психология и педагогика”. 2009. № 2. С. 73–77.
6. Казаренков В.И., Казаренкова Т.Б. Внеаудиторные занятия студентов по учебным предметам: монография. М.: Изд-во РУДН, 2014.
7. Казаренков В.И., Казаренкова Т.Б. Технология и искусство педагогического взаимодействия // Вестник РУДН. Серия “Психология и педагогика”. 2004. № 2. С. 265–269.
8. Farg’ona viloyati “Barkamol avlod” bolalar mактаби tomonidan 2023-yilning 5 oyligida amalga oshirilgan ishlar haqida ma’lumotnomasi / Z. Yo’ldoshev.
9. Badalova M.U. “Maktabdan tashqari ta’lim tizimini takomillashtirishda ta’lim klasterlarining roli” // Til va adabiyot jurnali, 2023-yil, 6-son, 169-bet.

- 13.00.00** Pedagogika fanlari
- 13.00.01** Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
- 13.00.02** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03** Maxsus pedagogika
- 13.00.04** Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05** Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06** Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07** Ta'limda menejment
- 13.00.08** Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09** Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00** Tarix fanlari
- 19.00.00** Psixologiya fanlari
- 01.00.00** Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00** Kimyo fanlari
- 03.00.00** Biologiya fanlari
- 09.00.00** Falsafa fanlari
- 10.00.00** Filologiya fanlari
- 11.00.00** Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №8**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.